

IBN SINO “DEVON”IDA KELITIRILGAN BA’ZI MUMTOZ SHE’RIY JANRLAR TAHLILI

Бегимқулова Ш.

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

Ibn Sino ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya’ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo’lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e’tibori ko’proq falsafa va tibga qaratilganini ko’ramiz. Garchi uni «Avitsenna» sifatida G’arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, «Tib qonunlari» bo’lsa-da, «Shayx-ar-Rais» nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Ma’lumki, Ibn Sinoning ilmiy faoliyati boshlangunga qadar arab tilshunosligining barcha yo’nalishlari batamom shakllanib bo’lgan edi. Halil ibn Ahmad davridan to Ibn Jinniy davrigacha arab grammatikasi, leksikologiyasi va tilning umumiy nazariyasiga oid eng yirik asarlar yaratilgan, shunga monand arab adabiyotida aruz vaznining barcha janrlari shakllanib, ularning yorqin namunalari satrlarga tushirilib ulgurgan edi. Ana shu boy ilmiy meros qatorida Ibn Sinoning "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) va "اوج زحل" (Zuh[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi), "أرجوزة في الطب" (tibbiy urjuza) kabi asarlaridagi she’rlar alohida o’rin tutadi. Turli manbalarda Ibn Sinoning she’riy asarlari turlicha nomlar bilan saqlanib qolgan: "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni), "أشعار ابن سينا" ("Ibn Sino she’rlari") va "ديوان". Ushbu asarlarning bir necha qo’lyozmalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. She’riy asarlarning qo’lyozmalari bir-biridan nafaqat shakl jihatdan, balki ko’chirilish davri bilan ham farq qiladi. Ehtimol, shuning uchun ham hozirgi kunda tadqiq qilinayotgan she’rlarning aniq miqdori ko’rsatilmagan.

Ibn Sinoning Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo’lyozmalari markazida 15303 inventar raqam ostida saqlanayotgan "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) asari toshbosma nusxasi ham bizgacha saqlangan ma’naviy merosimizning ajoyib namunalaridan biridir. Ushbu toshbosma nusxa Ibn Sino she’rlarining qo’lyozmasi asosida arab sharqshunos olimi doktor Husayn Ali Mahfuz boshchiligidagi 1957-yilda Iroqda nashr etilgan. Asardagi barcha she’rlar arab tilida bo’lib, ular orasida Ibn Sinoning mashhur "Qasidai Ayniyya"si ham o’rin olgan. Devonda hammasi bo’lib 183 bayt ya’ni 366 misra she’r mavjud. Bu turli janrlardagi 27ta saralangan mumtoz she’rlar namunasidir. She’rlar taxminan har 20 bayt oralig’ida [F. 41 a] – [F. 41 b], [F. 42 a] – [F. 42 b], [F. 43 a] – [F. 43 b], [F. 44 a] – [F. 44 b], [F. 45 a] shaklida taqsimlangan. Ular mavzu jihatidan ham rang-barangdir. Aynan shu bois biz tarjima va tahlil uchun mazkur devonga tayandik. Tarjimada matn asliyatining tilini va uslubini saqlab qolishga harakat qildik, faqatgina tushunish qiyin bo’lgan joylariga matn mazmunidan chiqib ketmagan holda, izoh va qo’shimchalar berishga urindik.

بسم الله الرحمن الرحيم
ديوان ابن سينا
قال الشيخ الرئيس:

صن السر عن كل مستخير

و حاذر فما الحزم الا الحذر اسيرك سرك ان صنتهو أنت اسير له ان ظهر

Bismillahir rohmanir rohiym

Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan

Ibn Sino devoni

Shayx ur-Rais aytdi(dedi):

Siringni hammaga aytish (oshkor etish)dan ehtiyot bo’lg’in. Chunki mulohazali degan so’z – ehtiyotkor bo’lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u seni asiringdir, agar siring oshkora bo’lsa, sen siringning asiri bo’lib qolasan.

Ibn Sino she’rlarida yoshlarga nasihat qiladi, har bir ishda mulohaza bilan fikr yuritishni, o’ziga do’st sirdosh tanlashda ehtiyot bo’lishni uqtiradi. Ibn Sinoning bunday purma’no nasihatlariga, falsafiy qarashlarga boy she’rlari uning اوج زحل (Zuh[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi)asarida ham ko’plab keltirilgan. Sho’rning ham arabiy ham forsiy she’rlarini o’zida jamlagan bu asar O’zR FA fundamental kutubxonasida 19259 inventar raqam ostida saqlanadi. Bu asar Ibn Sino she’rlari jamlagan boshqa asarlardan ko’ra mukammalroq sanaladi. Majmuaning avvalgi qismida 4 g’azal, 5 qit’a, 38 ruboiy, va 2 ta fard hammasi bo’lib 122 bayt ya’ni 244 misra fors-tojikcha she’rlar o’rin olgan. Undagi sara ruboiylar mavzu va g’oya jihatidan mukammal, sho’rning teran fikrlari ularga jo bo’lgan:

از قعر گل سپاه تا اوج زحل
کردم همه مشکلات گیتی را حل
بیرون جستم ز قید هر مکر و حیل
هر بند گشاده شد مگر بند اجل¹

Qora tuproq qa’ridan tortib to Zuh[Saturn]ning eng baland cho’qqisigacha bo’lgan dunyoning hamma qiyin, mushkul masalalarini hal qildim. Men har qanday makr-u hiyla tuzog’idan qutulib chiqa oldim. Hamma tugunlar yechildi. Lekin birgina ajal-o’lim tugunini yecha olmadim.

Mumtoz Sharq she’riyatida asl tarovat, teran ma’nolarni to’g’ri idrok qilish uchun Tasavvuf ta’limotidan xabardorlik, uning istilohlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Tasavvuf - insonning ilohiyotga mun

Komil inson bo'lib yetishishga intilish va shu maqsadda uning ta'limotida belgilangan yo'llarni bosib o'tish zarurati tasavvufning asosiy muddaosi hisoblanadi. Shunga ko'ra tasavvufning eng ko'p qo'llanadigan istilohlari ishq, may, jom, ko'ngil, ma'shuqa, dunyo, raqib, oshiq va boshqalar.

O'zida boy ma'naviy merosni jamlagan Ibn sino she'riyatida ham tasavvufiy istilohlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, may bilan bog'liq bo'lgan ruboiylar. May tasavvufda ishq, sof ishq, ya'ni Oллоhga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi. Tasavvufga ko'ra agar oshiq ma'shuqasining ishqida may ichib mast bo'lsa bu- ishqning haqiqiylikiga ishora. Har bir istilohning o'z ma'nosi borki, shu sababli mumtoz she'riyatda bunga alohida e'tibor qaratganlar. Lekin Ibn Sino she'riyatida bunga salgina boshqacharoq yondashiladi.

الراح في هذه البلايا راحتي
لله فاجعل راحتي في راحتي
بنت الكروم شفاء مجروح الهوى
عالج بها يا ابن الكرام جراحتي

Rohatijon erur may mushkilot ichra,
Rohatim qo'y Oллоhim, shu kaftim ichra.
Tok qizi-may shifodir ishqdan yaradorlarga,
Ey karamli zot o'g'li jarohatimni emla.

"Bunday qiyinchiliklarda may jonning rohatidir, Oллоhim, mening rohatimni kaftim ichiga qo'y. Tok qizi(may) sevgidan yaralanganlarga shifobo'ladi. Ey karamli kishining o'g'li jarohatimni davolagin".

Bu ruboiysida Ibn Sino so'z o'yini qilyapti. May -الراح، راحت - kaft hamda rohat ma'nosida, كرام - karomatli va bog'bon، ابن الكرام - bog'bon o'g'li، بنت الكروم - tok qizi, ya'ni maydir. Ushbu ruboiy "ruboiyi xosa" a-a-b-a shaklida qo'fiyalangan. Ruboiy badiiy tasvir vositalari orqali yanada ohangdorlik kasb etadi. Birinchi va ikkinchi misralardagi so'zining takror qo'llanishi takrir san'atini hosil qilgan bo'lsa, oxirgi misradagi جراحتي so'zi ularga ohangdosh bo'lib keladi. Bulardan tashqari راحتي so'zi bir misrada ikki marta ikkita ma'noda qo'llanilib, tajnis san'atini hosil qiladi. Mayni tok qiziga o'xshatilib tashbeh san'ati ham mohirona qo'llangan. Ruboiyda yuqorida aytib o'tganimizdek ishq azoblarida may davo bo'lmoqda. Ibn Sino bu masalaga ikkinchi tomondan, ya'ni tabiblik nuqtai nazaridan ham yondashadi.

Shu jihatdan Ibn Sino "Qonun" asarida ham, kichik risola va qasidalarida ham mayning zararli hamda dorivorlik xususiyatlari haqida so'z yuritadi, bu haqida baytlar keltirib o'tadi:

May dushmani mastu do'stbo hushyorast,
Andak taryoku, besh zahri morast.
Dar bisyorash mazarrat andak nest,
Dar andaki u manfaat bisyorast.

(May mastning dushmaniyu, hushyorning do'stidir. Uning ozi taryoq-zahar davosiyu, ko'pi ilon zaharidir. Ko'pidan zarar oz emas, ozida manfaat ham kattadir). Ushbu to'rtlikda birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralardagi ast so'zi takrir san'atini, misralardagi antonim so'zlar: dushman-do'st, andak-bisyor tazod san'atini yuzaga keltirgan. To'rtlik a-a-b-a shaklida qo'fiyalangan, forsiyda yozilgan. Sharq she'riyati an'alaridan farqli ravishda shoir ushbu she'rlarida nafaqat badiiy, balki ilmiy tomondan ham bizga ko'p ma'lumotlarni beradi. Ya'ni tibbiyot, falsafa, mantiq fanlarini she'riy usullar orqali insoniyatga yetkazib beradi. Ko'rib o'tganimizdek Ibn sino she'rlari orasiga chuqur fanni, kerakli bilimlarni jo etgan.

Ibn Sino may haqidagi she'rlarida ichkilik johillar(ya'ni haddan tashqari ko'p may ichuvchi kimsalar)ga qanday ta'sir etishini, ichilgandan keyin ularda yuz beradigan voqealarni ham tasvirlaydi. Tabib sifatida u ko'p may ichishni qoralaydi, uning salbiy oqibatlarini bayon etadi va bu yo'lga kirib qolganlarning ancha-muncha ahmoqliklari ko'p may ichganlarida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.

Ibn Sino ruboiylarining o'zbekcha tarjimalari ham she'riy tarjimaning yorqin namunalaridandir. Uning ruboiylari fors-tojik va arab tilida bitilgan. Ibn sino ruboiylarida chuqur falsafiy g'oyalar o'rin olgan. Chunki yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek "Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarga alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot o'z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag'ishlangan". Albatta Ibn Sino kabi ko'plab buyuk bobokalonlarimizning ilmiy merosini o'rganish biz yosh avlodning oldimizdagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Ibn Sino ilmiy merosini, tarjima asarlarini o'rganar ekanmiz, uning ruboiyoti namunalari mumtoz adabiyotimizda, tarjimashunoslik sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sinoning o'zbek tiliga tarjima qilingan ruboiylarini fors tilidagi asliyati bilan juda yaqin. Tarjimashunos olim, filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov Ibn Sino ruboiylari tarjimasi xususida ushbu fikrlarni keltiradi: "Muayyan olingan asar bir

izofalar nisbatan bir qadar yuqoriligiga qaramay, bu tarjimalar ham yuksak Sharq she'riyati vorislari bo'lgan didi baland, ta'bi nozik o'quvchilar orasida o'z muxlislarini topdi. Har bir mutarjimning ham buyuk so'z san'atkorlari "panjasiga panja ur" gisi, ular asarlari tarjimasida o'z qalami kuchini sinab ko'rgisi keladi. Bu yangi tarjimalarga yo'l ochadi. Ushbu satrlar muallifning Ibn Sino ruboiylarining uchinchi tarjimasiga qo'l urishi ayni shu omil bilan izohlanadi. Biz uning 46ta ruboiysini o'z an'anaviy vaznida o'zbek tiliga o'girdik"². Tarjima nazariyasidan bizga ma'lumki, bir tildan boshqa tilga tarjimani amalga oshirishda tillar bilan bir qatorda xalqlar o'rtasidagi mushtaraklik ham muhim rol o'ynaydi.

Ibn Sino ruboiylari o'zbekcha tarjimalarining asliyatga yaqinligi ham aynan Sharq she'riyati an'analari, umumiyliklari va albatta asrlar davomida saqlanib kelayotgan turkiy tilli va forsiy zabon xalqlar o'rtasidagi mushtaraklikdadir. Buni quyidagi ruboiylar misolida ko'rib o'tsak:

*Az qa'ri gili siyoh avchi Zuhal
Kardam hama mushkiloti getiro hal;
Berun chastam zi kaydi har makru hiyal,
Har band kushoda shud, magar bandi achal.*

Shu ruboiyning Jamol Kamol tomonidan o'zbek tilidagi tarjimasi:

*Shul hoki siyohdin to avji Zuhal,
Har nechaki mushkilot erur, etdim hal.
Ochdim necha zanjir – zanjiru makru hiyal,
Yechdim necha bir tugun, magar qoldi ajal...*

Ko'rinib turibdiki, forsha ruboiy tarjimasi o'zbek tilida ham xuddi asliyatdagidek. Balki undan ham ortiqroq. Biz bu tarjimani ekvevalent tarjima deb bema'lol ayta olishimiz mumkin. Go'yoki Ibn Sino bir ruboiyni har ikki tilda yozgandek. Har ikkala ruboiyda ham vazn bir xil. Qofiya har ikkalasida: zuhal, hal, ajal so'zlari. Chuqur falsafiy mushohadaga tortuvchi baytlarda yerdan to osmon-u falakkacha bo'lgan masofa qalamga olingan. Shoir ham tabib sifatida, ham islom falsafasi tomonidan ajal yechilmas muammo ekanligini ta'kidlab o'tadi. Asliyatda ham tarjimaga ham shakl va mazmun bir-biridan qolishmaydi.

*Gar boda gahe xuram, nishone xomist,
Var z-on ki mudom may xuram, badnomist.
May shuhu hakim u rind boyad, ki xo'rad,
V-in har se nay, mayxo'r, ki dushmankomist.*

Fors tilidagi ruboiyni o'zbek tiliga tarjimasi bilan solishtiramiz va ulardagi farqli jihatlarini, asliyatga yaqinligini ko'rib o'tamiz.

*Gar bodani goh-goh icharmen - xomlig',
Ammoki mudom ichar esam - badnomlig'.
May shohu hakim u rind ichar ersa, na xush,
Gar boshqasi no'sh aylasa – dushmankomlig'.*

(Jamol Kamol tarjimasi)

Asliyat bilan tarjimani solishtirib ko'rganimizda o'zaro yaqinlikni ko'ramiz. Lekin bu ruboiy yuqorida ko'rib o'tanimizdek aynan asliyat bilan bir xil emas. Chunki vaznda o'zgarish sodir bo'lgan, ruboiylarning hijolari o'rtasida farq hosil bo'lgan. Tarjimada badiiyat kuchliroq ifoda etilgan. Lekin g'oyaviy, mazmuniy jihatdan mukammallikning saqlanishidagi tarjimon mahorati maqtovg'a loyiq.

*Ey nafs, ki bastai hoyu havasi,
Bishtob, ki dar himoyati yak nafasi.
Dunyo matalab, choh macho, ishva mahar,
K-az do'st baroiyu ba dushman narasi.*

*Ey nafs, ki g'arq ayla havoyu havasing,
Zud o'lki, zarur himoyati bir nafasing.
Dunyo dema, molu davlatu ishva dema,
Kim, do'st deb dushmanga o'lasing...*

Har ikkala ruboiyda ham o'ziga xos mukammallikni ko'rishimiz mumkin. Vazn saqlangan holda qofiyalar ham til imkoniyati qo'shimchalariga monand tarjima qilingan: forsiyda *havasi*, *nafasi*, *narasi* so'zlaridagi – *i* qo'shimchasiga o'zbek tilida birgina – *ing* qo'shilishi bilan hosil qilingan. Hamma jihatlarini solishtirib ko'rganimizdek asliyat va tarjima o'rtasidagi yaqinlik bir o'qishdayoq yaqqol ko'zga tashlanadi.

*Soqi, qadahi moi maini tu kuchost?
V-on oinai xudoybini tu kuchost?
Hoham ki tahorate diham botirno,
On lo'lashikasta lo'laini tu kuchost?*

Har ikkala ruboiyda ham vazn to'liq saqlangan. Ma'no jihatdan ham mukammallik saqlangan. Umumiy qilib aytganda asliyat va tajjima bir-biriga juda yaqin. Boshqa ruboiylardan farqli o'laroq, bu ruboiyda radif saqlangan, aynan o'sha ma'noda o'zbek tilidagi so'z bilan ifoda etilgan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ibn Sino ruboiylari tarjimasi mukammal va asliyatga juda yaqin. Deyarli barcha ruboiylarda vazn va qofiyalarning saqlanganligi tarjimon iste'dodining yuksak namunasidir. Ruboiylardagi shakl barchasida –a –a –b –a ko'rinishida. Tarjimashunos olim E.Ochilov aytganlaridek “bugungi kunda Abu Ali Ibn Sino ruboiylarining uch shakli mavjud ekan, ularni inkorning inkori sifatida emas, aksincha, asliyatga ham shaklan, ham mazmunan muvofiq keladigan muqobil tarjima yaratish yo'lidagi intilishlar sifatida baholash kerak.” Darhaqiqat, olim o'z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barchasini egallaydi. Biroq o'lim haq ekanligi, uni davolashning iloji yo'qligini alohida ta'kidlab o'tadi. Har ikki devondagi boshqa she'rlar tarjimasi va tahlili, ular haqidagi batafsil ma'lumot keyingi ishlarda keltiriladi.

ADABIYOTLAR

1. A.Irisov Abu Ali Ibn Sino - T.: Fan, 1980.
2. ابن سينا، ديوان ابن سينا مع تحيات الدكتور حسين علي محفوظ، العراق، - 1957
3. Ibn Sino ta'limoti fan taraqqiyotida VII xalqaro Ibn Sino o'qishlari. Ibn Sino ruboiylarining o'zbekcha tarjimalari. - Buxoro, 2013.
4. Abu Ali Ibn Sino. Avchi Zuhul. – Dushanbe, Irfon. 1980.
5. Abu Ali Ibn Sino. Lirika (tarjimonlar: Sh.Shomuhamedov, J.Kamol, A.Irisov).